

5 – SON / 2023 - YIL / 15 - YANVAR

**NORMATIV-HUQUQIY HUJJATLAR O'RTASIDAGI KOLLIZIYALAR MASALASI VA
ULARNI BARTARAF ETISH ASOSLARI**

Faxxutdinova Matluba Amanbayevna

+99897-773-06-70

Toshkent viloyati

yuridik texnikumi

o'qituvchisi

Kalit so'zlar: *normativ-huquqiy hujjat, huquqdagi kolliziya, huquqiy norma, fuqarolik qonunchiligi, nuqson*

KIRISH

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan demokratik yangilanishlar jarayonida normativ-huquqiy hujjatlardagi nuqsonlarni vujudga kelish sabablarini o'rganish va ularni bartaraf etish, o'z navbatida, ushbu sohada kompleks chora-tadbirlarni hayotga tadbiq etishni taqazo qiladi.

Normativ-huquqiy hujjatlarning nuqsonlarini oldini olish, aniqlash va bartaraf qilish faoliyatining muvaffaqiyati ko'p jihatdan norma ijodkori tomonidan nuqsonlarning kelib chiqish sabablarini ko'rib chiqishga bog'liq, chunki ma'lum bir hodisaning boshlanish mexanizmlarini anglash orqali biz ushbu hodisaga ta'sir o'tkaza olamiz.

Normativ-huquqiy hujjatlardagi nuqson sifatida kolliziyalarning mazmunini tahlil etishda eng avvalo, mazkur tushunchaning mohiyati aniqlash, unga xos bo'lgan belgilarni tahlil etib, ularning bog'liqlik va farqli tomonlarini o'rganish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz. Normativ-huquqiy hujjatlar o'rtasidagi kolliziylar va qarama-qarshiliklar sababini, tabiatini anglash hamda ilmiy tahlil etish uchun huquqshunoslikda shakllangan "yuridik kolliziya" va "yuridik konflikt" kabi tushunchalarining ma'no-mazmunini teran tushunib olish zarur.

"Kolliziya" (lotincha collisio-to'qnashuv) – qarama-qarshi kuchlarning, harakatlarning, manfaat va qarashlarning to'qnashuvi ma'nosini anglatadi. Bir so'z bilan aytganda, kolliziya – bu konflikt, ziddiyatdir.

Ta'kidlash joizki, ilmiy muomalada qo'llaniladigan ayrim atamalarning yuridik mazmuni har doim ham ularning etimologik ma'nosiga to'g'ri kelmaydi. Chunki, yuridik til umum qabul qilingan adabiy va muomala tilidan muayyan darajada farq qilishi mumkin. Shu bois, "kolliziya" atamasi shartli xususiyatga ega bo'lib, huquq nazariyasida asosan qo'chma ma'noda qo'llaniladi.

Hozirgi zamon yuridik fanida mazkur huquq hodisasi yuzasidan yagona yondashuvning mavjud emasligi huquqiy borliqdagi boshqa holatlar bilan birga, huquqdagi va qonun hujjatlaridagi kolliziyalarni ham farqlash imkonini ancha

cheklaydi. Binobarin, huquq hodisasini ijtimoiy voqelikning boshqa hodisalaridan (ijtimoiy tartib, “tabiiy huquq”, alohida shaxslarning erkinlik va adolat haqidagi sub'ektiv qarashlari) farqlash uchun qat'iy mezonlarga ega bo'lmasdan turib, kolliziyalarni bunday tasniflashning imkonni bo'lmaydi. O'z navbatida, huquqning mohiyatiga nisbatan yangi yondashuvlarning yuzaga kelishi keyinchalik “huquqdagi kolliziya”lar tushunchasi mazmuniga oid qarashlarning ham o'zgarishiga olib kelishi mumkin.

METODOLOGIYA

Qonunchilik murakkab, ko'p tarmoqli tuzilma bo'lganligi bois unda turli nuqsonlar, nomutanosiblik, nomuvofiqlik, o'zaro zid qoidalar, raqobatlashuvchi normalar va institutlar, kolliziyalar mavjud bo'lishi mumkin. So'nggi yillarda mamlakatimiz qonunchiligi bozor munosabatlarini qaror toptirish yo'nalishida rivojlanib, miqdor jihatdan tez o'sib bormoqda. Qonunlarimiz jo'shqin rivojlanmoqda, ya'ni ular tez-tez o'zgartirilib, to'ldirilib, yangi tahrirda qayta qabul qilinib kelmoqda. Davr talablardan kelib chiqqan holda yuridik normalarning kattagina qismini tuzatish, yangi hayotiy voqeliklarga muvofiqlashtirish, xalqaro standartlarga moslashtirish, samaradorligini oshirish, batartiblashtirish hamda tizimlashtirish ayni zaruriyatdir.

Yuridik kolliziyalarning mazmun va mohiyatini tavsiflash huquq va qonunni qat'iy tarzda bir-biriga qarama-qarshi qo'yishga asoslanmasligi lozim. Chunki, bunday holat huquqning jamiyatda muhim normativ regulator sifatidagi o'rnini noto'g'ri baholashga va buning oqibatida yuridik kolliziyalarning kamayishiga emas, balki kengayishiga olib kelishi mumkin[1].

Huquqshunoslik fanida uning asosiy tayanch kategoriyasi hisoblangan huquq hodisasini tavsiflashda yagona yondashuvlar mavjud emas. Bunday sharoitda normativ-huquqiy hujjatlardagi “nuqson” sifatida o'rganilayotgan “huquqdagi kolliziya” va “qonunchilikdagi kolliziya” tushunchalari o'rtasidagi definitsiyalarni aniqlash ancha mushkul hisoblanadi. Chunki, “huquqiy kolliziya” tushunchasining mazmuni doirasiga faqat normativ-huquqiy hujjatlar o'rtasidagi kolliziyalarni (ziddiyatlarni) kiritish kerakmi yoki huquq tushunchasi doirasiga kiruvchi barcha hodisalar o'rtasidagi ziddiyatlarni kiritish lozimmi, degan savol ochiq qoladi. Demak, huquq tushunchasi yuzasidan huquqshunoslik fanida yagona yondashuvning shakllanmaganligini hisobga olsak, huquqdagi va qonunchilikdagi kolliziyalarni ajratish bugungi kunda maqsadga muvofiq emasligini ko'ramiz.

O'z navbatida, normativ-huquqiy hujjatlardagi nuqson bo'lgan kolliziyalarni ular o'rtasidagi raqobatdan farqlash lozim. Normativ-huquqiy hujjatlar o'rtasidagi raqobat deganda, ikki va undan ortiq huquq normalarining bir-biriga zid kelmasdan bir turdag'i yoki turdosh ijtimoiy munosabatlarni turli tomonlarini yanada aniq va to'liq hajmda tartibga solishi tushuniladi[2]. Raqobatlashuvchi normalar deganda, o'zaro qarama-qarshi bo'lman, faqat turlicha anqlik darajasi va hajmi jihatdan farqlanuvchi ikki, uch va undan ortiq normalarning bir turdag'i ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishi

tushuniladi. Bular, odatda, turli yuridik kuchga ega bo‘lgan, har xil darajadagi huquq ijodkorligi organlari tomonidan qabul qilingan normalardir. Yuridik normalarning raqobatlashuvi aslida normal holatdir. Biroq, bundan farqli o‘laroq normalar ixtilofi salbiy holat bo‘lib, ko‘pincha noxush oqibatlarga olib keladi. Ixtiloflashuvchi normalar o‘zaro kelisha olmaydilar, bir-birini istisno etadilar[3].

Masalan, yuridik shaxslarni tashkil topishi va faoliyat yuritishining umumiy asoslari O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksida mustahkamlab qo‘yilishi bilan birga, bu boradagi munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan yanada aniqroq normalar tegishli normativ-huquqiy hujjatlar bilan belgilab qo‘yilgan (O‘zbekiston Respublikasining “Aktsiyadorlik jamiyatları va aktsiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi, “Xususiy korxona to‘g‘risida”gi va boshqa qonunlar). Bunday holatlarda huquq normalari haqiqatdan ham raqobatga kirishadi va ushbu vaziyatni tabiiy, deb hisoblash mumkin. Normativ-huquqiy hujjatlar o‘rtasidagi kolliziylar esa, huquq normalarini nafaqat bir-biriga mos kelmasligini, balki, ularni to‘qnashuvini hamda ularning o‘zaro inkor etishini anglatadi.

Milliy qonunchiligidagi kolliziyalarning quyidagi turlarini ko‘rsatib o‘tish mumkin:

1. Qonunlar va qonun osti hujjatlar o‘rtasidagi kolliziylar. Basharti mazkur turdagи nuqsonlar yuzaga kelsa, masala qonun foydasiga hal etiladi. Chunki, qonun yuqori yuridik kuchga ega va uning ustunligi ta‘minlanishi lozim (O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 15 va 16-moddalari). Bir mavzuga oid bir necha qonun (yoki boshqa normativ-huquqiy hujjat) mavjud bo‘lsa hamda ular bir-biriga zid bo‘lib qolsa, muddati bo‘yicha keyinroq qabul qilingan qonun (hujjat) qoidalari amal qiladi.

2. Konstitutsiya bilan boshqa normativ-huquqiy hujjatlar o‘rtasidagi kolliziylar. Bunday yuridik ixtiloslar Konstitutsiya foydasiga hal etiladi, chunki Konstitutsiya barcha qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga nisbatan oliv yuridik kuchga ega. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 16-moddasi ikkinchi qismida mustahkamlanganidek, “birorta ham qonun yoki boshqa normativ-huquqiy hujjat Konstitutsiya normalari va qoidalariiga zid kelishi mumkin emas”.

3. O‘zbekiston Respublikasi qonunlari bilan Qoraqalpog‘iston Respublikasi qonunlari o‘rtasida kelib chiqishi mumkin bo‘lgan kolliziylar. Qoraqalpog‘iston Respublikasining Konstitutsiyasi O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga zid bo‘lishi mumkin emas (74-modda). O‘zbekiston Respublikasi qonunlari Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududida ham majburiydir. Shunday qilib, Qoraqalpog‘iston Respublikasining Konstitutsiyasi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, Qoraqalpog‘iston Respublikasining qonunlari esa O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga to‘la mos bo‘lishi shart.

4. Mamlakatning milliy qonunchiligi normalari bilan xalqaro huquq normalari o‘rtasidagi kolliziylar. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining muqaddimasida

mustahkamlanganidek, O'zbekistonda xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan qoidalari ustunligi tan olinadi[4].

XULOSA

Bizning fikrimizcha, normativ-huquqiy hujjatlar o'rtasidagi kolliziyalarni faqat huquq normalari o'rtasidagi to'qnashuv, deb hisoblash ham to'g'ri bo'lmaydi. Chunki, ushbu tushunchaga nisbatan bunday cheklangan yondashuv kolliziya hodisasini ilmiy tadqiq etish doirasini ancha toraytiradi.

Binobarin, "mos kelmaslik" so'zining mazmuni doirasi "ziddiyat" (kolliziya) tushunchasining mazmunidan kengroq masalalarni o'z ichiga qamrab oladi. Shu jihatdan olganda, qonunchilikdagi kolliziylar ham ziddiyatlar shaklida, ham huquq normalari o'rtasidagi farqlar ko'rinishida namoyon bo'lishi mumkinligini qayd etish joiz[5]

Normativ-huquqiy hujjatlar o'rtasidagi kolliziylar tushunchasi yuzasidan yuqorida keltirib o'tilgan yondashuvlarni umumlashtirgan holda mazkur tushunchaga tor va keng ma'noda ta'rif berish lozim, deb hisoblaymiz. Tor ma'noda normativ-huquqiy hujjatlar o'rtasidagi kolliziylar deganda, ikki va undan ortiq normativ-huquqiy hujjatlar o'rtasidagi ziddiyatlarni tushunish mumkin. Keng ma'noda esa, normativ-huquqiy hujjatlar o'rtasidagi kolliziya deganda, bir xil yoki o'xshash bo'lgan ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar o'rtasidagi, shuningdek huquqni qo'llash hamda davlat organlari va mansabdor shaxslar tomonidan o'z vakolatlarini amalga oshirish jarayonida yuzaga keladigan ziddiyat yoki tafovutlarni tushunish lozim.

Normativ-huquqiy hujjatlardagi nuqson bo'lgan kolliziya tushunchasining mazmuni va huquqiy tabiat yuzasidan tahlilimizga xulosa qilar ekanmiz, mazkur salbiy hodisaning turli ko'rinishlarda namoyon bo'lishini ham qayd etish lozim bo'ladi. Binobarin, normativ-huquqiy hujjatlar o'rtasidagi kolliziylar tushunchasiga nisbatan yondashuvlarning ko'p jihatligi va xilma xilligi ularni muayyan tarzda tasniflash zaruratini keltirib chiqaradi. Bundan tashqari, qonunchilikdagi kolliziyalarning yuridik tabiatini ochishda uning turli xil ko'rinishlarda namoyon bo'lishini ham e'tibordan chetda qoldirmasligimiz lozim.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan demokratik yangilanishlar jarayonida normativ-huquqiy hujjatlar o'rtasidagi kolliziyalarni kelib chiqish sabablarini o'rganish va ularni oldini olib borish, o'z navbatida, ushbu sohada kompleks chora-tadbirlarni hayotga tadbiq etishni taqazo qiladi. Normativ-huquqiy hujjatlar o'rtasidagi kolliziyalarni oldini olish ularni hal qilish va tugatishdan ko'ra foydaliroq hamda maqsadga muvofiqdir. Shu jihatdan olganda, mamlakatimizda ob'ektiv va sub'ektiv omillar asosida qonunchilikdagi kolliziyalarning kelib chiqish sabablarini aniqlash ko'p jihatdan bu boradagi muammolar yuzasidan chuqur tadqiqotlar olib borish va ular natijasida olingan nazariy ishlanmalarni amaliyatga tadbiq etishga bog'liq.

5 – SON / 2023 - YIL / 15 - YANVAR

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ergashev M.M. Qonunchilikdagi kolliziylar va ularni hal etish mexanizmi. – T.: TDYuI, 2013. – B.6.
2. Matuzov N. I. Ponyatiye i prichiny yuridicheskix kolliziy // Teoriya gosudarstva i prava. Matuzov N.I., Mal'ko A.V. M.: Jurist', 2014. - S. 354.
3. Odilqoriev X. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. – Toshkent: Adolat, 2018. –B.445.
4. Xudoibergaliyev A.Q. Milliy qonunchiligidan kollizion masalalar // Juridik konfliktlarni oldini olish va ularni hal etish mexanizmini takomillashtirish muammolari. Respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi to'plami.– Toshkent: TDYuI, 2013. – B.106-107.
5. Saydullaev Sh., Ergashev M. Juridik konfliktologiya. O'quv qo'llanma – T.: TDYU, 2018. – B.48.